



AFG‘ONISTON MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNING KAFOLATI

Fayzullayeva Klara Abdullayevna

Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Raxmatullayeva Sug‘Diyona Farxod Qizi

Jizzax SAMBRAXAM Universitet magistri

Annotatsiya: O‘zbek xalqida “Yon qo‘shni – jon qo‘shni”, “Qo‘shning tinch – sen tinch” degan maqollar bor. Bular tarix tajribasidan kelib chiqib, necha ming yillik yaxshi qo‘shinichilik munosabatlarini inobatga olib aytilgan buyuk hikmatli so‘zlardir. Shunday ekan, yon qo‘shnimiz bo‘lmish Afg‘oniston, hamisha davlatimiz e‘tiborida bo‘lgan va bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, Konstitutsiya, Referendum, konstruktiv, xavfsizlik, barqarorlik, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston Islom Amirligi, Ahmoniylar, salavkiylar, Arab xalifaligi, g‘aznaviylar, mo‘g‘ullar, temuriylar, boburiylar, safaviylar, Ahmadshoh Durraniy, Xuroson, Seiston, Sind, Balujiston, Panjob, Kashmir, Balxni, Kobul, Qandahor, Hirot, Peshovar.

Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat‘iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz «Inson qadri va manfaatlar uchun» degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgarilab bormoqda. 2023-yil aprel oyida milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi yangilangan Konstitutsiya bo‘yicha O‘zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq referendumini bo‘lib o‘tdi. Referendumda ovoz berganlarning 90 foizdan ziyodi ushbu chinakam xalq Konstitutsiyasini qo‘llab-quvvatladi. Shu tariqa islohotlarimizning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olishi ta‘minlandi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shinichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdan iboratdir. Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo‘nalishidan biri esa, Markaziy Osiyo mintaqasidir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni hal qilishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Afg‘onistonning tarxiga bir nazar. Afg‘oniston Islom Amirligi (2021-yilning 15-avgustigacha Afg‘oniston islom respublikasi) - Janubi - G‘arbiy Osiyoning eng chekka sharqiy qismida joylashgan mamlakat. Geografik o‘rniga ko‘ra Yaqin Sharq mamlakatlari qatoriga ham kiritiladi. Ular uzoq asrlar davomida Ahmoniylar, salavkiylar, Arab xalifaligi, g‘aznaviylar, mo‘g‘ullar, temuriylar, boburiylar, safaviylar hukumronligi ostida bo‘lgan. 1747-yil Ahmadshoh Durraniy Xuroson, Seiston, Sind, Balujiston, Panjob, Kashmir va Balxni, shuningdek Amudaryoning so‘l sohilidagi ayrim hududlarni egallab, birinchi bor mustaqil Afg‘oniston davlatiga asos soldi. Lekin u 1818-yilda bir qator xonliklar (Kobul, Qandahor, Hirot va Peshovar)ga bo‘linib ketdi. 1825-yilda Kobul hokimi Do‘stmuhammad afg‘on yerlarini bir butun davlat qilib birlashtirishga harakat qildi, lekin bunga Angliyaning bosqinchilik urushlari to‘sqinlik qildi (1838-42, 1878-80 yillardagi urushlar). Angliya Afg‘onistonni o‘z mustamlakasiga aylantira olmadi, lekin 1879-yilda tashqi siyosat uning nazorati ostiga o‘tdi. 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida



Afg‘onistonda markazlashgan davlatni shakllantirish jarayoni yakunlandi. Birinchi Jahon urushida Afg‘oniston o‘zini betaraf deb e‘lon qildi. Qulay xalqaro sharoitning vujudga kelishi Afg‘oniston amiri Omonulloxonga 1919-yil 28-fevralda Afg‘onistonni mustaqil deb e‘lon qilishga imkon berdi. 1919-28 yillarda Omonulloxon mamlakatda qoloqlikni bartaraf qilish va ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. 1923-yilda Afg‘onistonning birinchi konstitutsiyasi e‘lon qilingan. Osiyo va Yaqin Sharq kesishgan erda joylashgan Afg‘oniston ming yillar davomida strategik jihatdan muhim hudud bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston mintaqa davlatlari bilan do‘stona va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor. O‘zbekiston Afg‘oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa‘y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettirmoqda. O‘zbekiston tomoni Afg‘oniston iqtisodiyotini qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko‘mak berishni davom ettirmoqda. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg‘oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir. (O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati). Shunday ekan Afg‘on xalqining tinchligi bizning tinchligimizdir. So‘nggi 45 yil ichida bo‘lib o‘tgan voqealar Afg‘onistonda kuch bilan hech nimaga erishib bo‘lmashligini, faqat o‘zaro kelishuv natijasida tinchlikka erishish va mamlakatdagi barcha siyosiy kuchlarni qanoatlantiruvchi hokimiyat o‘rnatish mumkinligini ko‘rsatdi. Afg‘onistonning yaqin qo‘shnilaridan bo‘lmish O‘zbekiston ana shularni e‘tiborga olib, Afg‘oniston muammosini tinch bartaraf etishga intilib kelmoqda. Afg‘onistonni O‘zbekiston uchun muhimligi nimada?

Birinchiidan, albatta xavfsizlik masalasi. “Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o‘ziga xoslikni anglash tuyg‘usi birlashtirmoqda va bu tuyg‘u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas!. Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo‘shnilar va boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg‘oniston kerak”, – dedi davlat rahbari, Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida¹.

Ikkinchiidan, dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda Afg‘onistondagi tinchlik, u erdagi terroristik, ekstremistik guruhlariga qarshi kurash, bu O‘zbekistonga bevosita chegaradosh bo‘lgan davlatlar hududida biz uchun xavfsizlik barpo etish omilidir.

Uchinchiidan, o‘ta muhim masala esa afg‘on transport yo‘lagini yaratish. Buni ko‘p marta gapirganmiz, bu O‘zbekiston uchun hayot-mamot masalasi. Chunki biz uchun eng yaqin bo‘lgan Fors ko‘rfazi va Hind okeanidagi dengiz portlariga Afg‘oniston orqali o‘tiladi. Basharti bu yo‘lak barpo etiladigan bo‘lsa, biz uchun transportga ketadigan xarajatlar 10 barobardan ko‘proq kamayadi. Ayni paytda bizning eksport–import operatsiyalarimizning 20 foizgacha xarajatlari aynan transportga sarflanadi. Afg‘oniston orqali yo‘lak, albatta, bizning ichki bozorimizning ham arzonlashishiga olib keladi.

Ammo, mana 45-yildan oshdiki tinchlik hamon orzu bo‘lib kelmoqda. Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti bo‘lib

¹ Shavkat Mirziyoyevning - O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq (2023 yil 19 sentyabr, Nyu-York shahri) Yangi O‘zbekiston gazetasi. 20 sentyabr 2023 yil №192(981)



qoladi. Birinchi prezident Islom Karimov o‘z nutqlarida BMT 48-sessiyasida (1993 yil sentabr), butun dunyoni Afg‘onistonda paydo bo‘layotgan xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm haqida ogohlantirgan edi², 50- (1995 yil oktabr), 55-sessiyalarda (2000 yil sentabr) va BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillikni rivojlantirish maqsadlari” (2010 yil) sammitida e‘tiborini Markaziy Osiyoning dolzarb masalalariga urg‘u bergan. O‘zbekiston davlati tashabbusi bilan BMT tomonidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalarini tinch yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan qator rezolutsiyalar qabul qilingan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, 2023-yil 20-sentabr 78-sessiyasida Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozimligi, xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerakligini takidlagan.

Xulosa o‘rnida, aminmizki, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish natijasida hal qilinishi. Muzokaralar afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutgan holda, Afg‘oniston hududida va BMT shafeligida o‘tishi lozim. Donishmand afg‘on xalqi o‘z taqdirini o‘zi mustaqil hal qilishga haqlidir. Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak. Bu jafokash yurtda tinchlik o‘rnatishga ko‘maklashish yo‘lidagi bizning umumiy qat‘iy harakatlarimiz aslo susaymasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning - O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq (2023 yil 19 sentyabr, *Nyu-York shahri*) *Yangi O‘zbekiston gazetasi*. 20 sentyabr 2023 yil №192(981)
2. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. BMT Assambleyasining 48-sessiyasidagi so‘zlagan nutqi. 1993 yil 28-sentyabr. Toshkent-“O‘zbekiston” – 1996 yil. 2 –jild 30-37 betlar.
3. Mavlanov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi savdo yo‘llari.”Akademiya”, Toshkent-2008.-B.112.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-apreld qabul qilingan.Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma’qullangan.19-Iyul 2019-yil. “Xalq So‘zi”. 1-3 betlar.
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2004-yil, 639-640 betlar.
6. B.J.Eshov, A.A.Odilov “O‘zbekiston tarixi”, II kitob. “Donishmand ziyosi”, Toshkent-2020, 84-86 betlar.
7. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 23-26.
8. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(3), 37-40.
9. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 464-469.

² Karimov I.A. BMT Assambleyasining 48-sessiyasidagi so‘zlagan nutqi. 1993 yil 28-sentyabr.



10. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
11. Yahyoeyevna, O. F. (2023). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION. *World Economics and Finance Bulletin*, 18, 72-77.
12. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2023). BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 208-215.
13. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 203-207.
14. <https://uza.uz/posts/56413>
15. <https://uza.uz/posts/189764>